

## 2020- yilning yanvar-iyul oylarida Navoiy viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi jamiyat farovonligini aks ettiruvchi ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Resurslar sarfini tejovchi samarali innovatsion iqtisodiyotni barpo etish jarayonida xizmatlar sohasi alohida o'rin tutadi, chunki u, tovar ishlab chiqarish bilan taqqoslaganda, materiallar sarfini kamligiga, xarajatlarni tez qoplanishi va yuqori daromadlilikka ega.

Mazkur soha xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

### 2020- yilning yanvar-iyul oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

3 051,3  
mlrd. so'm

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi



103,5 %

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari  
hajmining o'sish sur'atlari

101,7 %


Aholi jon boshiga ko'rsatilgan  
bozor xizmatlari hajmining o'sish  
sur'atlari

3 048,5  
ming so'm

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmi



## Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmini taqqoslanishi, mlrd. so'm




2020- yilning yanvar oyiga nisbatan joriy yilning iyul oyida (diskret oy) ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 48,5 mlrd. so'mga oshdi va atigi 457,0 mlrd. so'mga yetdi.

**Taqqoslash uchun:** o'tgan yilning shu davrida ularning hajmi 92,3 mlrd. so'mga o'sgan va 420,2 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2020- yil VI - diskret (iyun) oyining hajmiga nisbatan taqqoslaganda, 2020- yil VII – diskret (iyul) oyining hajmi 95,5 mlrd. so'mga kamaygan.

**Taqqoslash uchun:** 2019- yilning VI va VII – diskret oylari o'rtasidagi farqi 9,8 mlrd. so'mni tashkil etgan.



*Dastlabki ma'lumotlar*


Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligini va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2020- yilning yanvar-iyul oylarida)

|  | Hajmi,<br>mlrd. so'm | O'tgan yilga<br>nisbatan o'sish<br>sur'ati, % da |
|--|----------------------|--|
| <b>Xizmatlar - jami</b>  | <b>3 051,3</b>       | <b>103,5</b>                                     |
| <i>shu jumladan:</i>   |                      |  |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari  | 138,6                | 112,0  |
| Moliyaviy xizmatlar  | 703,5                | 138,0  |
| Transport xizmatlari   | 539,7                | 96,1   |
| shu jumladan: avtotransport xizmatlari   | 469,4                | 99,5   |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari  | 107,2                | 82,8   |
| Savdo xizmatlari   | 962,9                | 94,0   |
| Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar  | 52,1                 | 85,9   |
| Ta'lim sohasidagi xizmatlar  | 89,1                 | 108,4  |
| Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar   | 37,1                 | 100,4  |
| Ijara xizmatlari   | 48,6                 | 92,7   |
| Kompyuter va maishiy tovarlarni<br>ta'mirlash bo'yicha xizmatlar                             | 43,8                 | 92,4   |
| Shaxsiy xizmatlar  | 66,7                 | 92,9   |
| Me'morchilik, muhandislik izlanishlari,<br>texnik sinovlar va tahlil sohasidagi<br>xizmatlar | 143,6                | 120,1  |
| Boshqa xizmatlar   | 118,4                | 87,6   |


Ko'rsatilgan bozor xizmatlari jami hajmining o'sishidagi asosiy omil, moliyaviy xizmatlar 38,0 % ga (ko'rsatilgan xizmatlar jami hajmining mutloq o'sishiga ta'siri 4,9 % punkt), me'morchilik sohasidagi xizmatlar 20,1 % ga (mutloq o'sishiga ta'siri 0,5 % punkt), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 12,0 % ga (mutloq o'sishiga ta'siri 0,3 % punkt). 2020- yilning yanvar-iyul oylarida jami ko'rsatilgan xizmatlar hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirma narxlardagi o'sish sur'ati 103,5 % ni tashkil etdi.

## Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga, xizmat turlari bo'yicha ta'siri, f.p



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari jami hajmining nisbatan pastligiga asosiy omil bo'lib savdo xizmatlarining 6,0 % ga (ularning salbiy ta'siri 1,1 punktga), transport xizmatlari 3,9 % ga (-0,4 punktga), shuningdek, yashash va ovqatlanish xizmatlari 17,2 % ga (-0,3 punktga), ijara xizmatlari 7,3 % ga, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar 14,1 % ga, kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari 7,6 % ga pasayishi 0,1 punktga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-iyul oylarida)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2020- yilning yanvar-iyul oylarida ularning ulushi 31,6 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar moliyaviy xizmatlar (23,1 %), transport xizmatlari (17,7 %), me'morchilik sohasidagi xizmatlar bo'yicha (4,7 %) qayd etildi.



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar ko'rsatish hajmlarining uncha katta bo'lmagan o'sishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 1,2 % ni tashkil etdi. Shuningdek, nisbatan yuqori bo'lmagan ulush kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar - 1,4 %, ijara sohasidagi xizmatlari - 1,6 %, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar- 1,7 % hissasiga to'g'ri keldi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlarini taqqoslanishi



Yuqori o'sish moliyaviy xizmatlar (38,0 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (20,1 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (12,0 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (8,4 %) va sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (0,4 %) da qayd etildi. Xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilmoqda.

Yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmi sezilarli darajada (17,2 % ga) pasayishi qayd etildi. Shu bilan birga, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (14,1 % ga), kompyuter ta'mirlash bo'yicha xizmatlar

(7,6 % ga), ijara xizmatlari (7,3 % ga), shaxsiy xizmatlar (7,1 % ga), savdo xizmatlari (6,0 % ga) shuningdek, transport xizmatlari (3,9 % ga) da pasayish kuzatildi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

2020- yilning yanvar-iyul oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi 31,6 % ni tashkil etib, bu 962,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi.


**Savdo** – bu tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining to'rtidan uch qismidan ko'prog'iga, aniqrog'i 80,6 % iga to'g'ri keladi.


Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 11,3 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 8,1 % ni tashkil etdi.

**Savdo xizmatlari tarkibi, % da**  
*(2020- yilning yanvar-iyul oylarida)*





**Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda**



**Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)**



**Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar**

### Moliyaviy xizmatlar

(2020- yilning yanvar-iyul oylarida)

**Moliyaviy xizmatlar hajmi 703,4 mlrd. so'mni - tashkil etdi.**

**Taqqoslash uchun:** 2019- yil yanvar-iyul oylarida moliyaviy xizmatlar xajmi 481,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi.



**Ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi 23,1 % ni tashkil etdi.**

**Taqqoslash uchun:** 2019- yil yanvar-iyul oylarida ularning ulushi 17,9 % ni tashkil etdi.

**O'tgan yilning shu davriga nisbatan hajmning 221,6 mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.**




**Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 38,0 % ni tashkil etdi.**

**Taqqoslash uchun:** 2019- yil yanvar-iyul oylarida ularning o'sish sur'ati 174,6 % ga yetgan.

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

**Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da**  
*(2020- yilning yanvar-iyul oylarida)*



Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 92,7 % ni tashkil etadi.


Joriy davrda sug'urta xizmatlarining ulushi 5,7 % oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning umumiy moliyaviy xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori ko'rsatkichga ega emas va u 1,6 % ni tashkil etadi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKTning rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

AKTdan faol foydalanish keng qamrovli infratuzilmaga asoslangan bo'lib, u eng zamonaviy uskunalar va texnologiyalar bilan jihozlangan, yuqori kadrlar salohiyatiga ega.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2020- yilning yanvar-iyul oylarida)



2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan

2020- yilning yanvar-iyul oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 138,6 mlrd. so'm darajasida belgilandi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati 112,0 % ga yetdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmdagi ulushi 4,5 % ni tashkil etdi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-iyul oylarida)



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xiz-

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushida kompyuter dasturlashtirish,

matlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 97,3 % ni tashkil etdi.

maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar - 1,3 %, boshqa aloqa xizmatlari - 0,2 %, noshirlik xizmatlari, shuningdek, axborot sohasidagi xizmatlar - 0,6 % dan tashkil etdi.

Ma'lumki, fuqarolarni yuqori sifatli va hamyonbop narxlardagi ta'lim bilan ta'minlash, jamiyat taraqqiyotini, uning kelajagini aniq belgilab beradigan vazifadir.

## Ta'lim sohasidagi xizmatlar (2020- yilning yanvar-iyul oylarida)

2020- yilning yanvar-iyul oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 89,1 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 2,9 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,4 % ni tashkil etdi.




**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2020- yilning yanvar-iyul oylarida)



O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati atigi 82,8 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 107,1 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi atigi 3,5 % ni tashkil etdi.



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash** bo'yicha xizmatlar - oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

*(2020- yilning yanvar-iyul oylarida)*



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 80,6 % bilan ustunlik qiladi.


2020- yilning yanvar-iyul oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 19,4 % ni tashkil etdi.

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu - sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2020- yilning yanvar-iyul oylarida)

2020- yilning yanvar-iyul oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 37,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlar umumiy hajmida ularning ulushi 1,2 % ni tashkil qildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,4 % ni tashkil etdi.



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda.



## Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2020- yilning yanvar-iyul oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3 048,5 ming so'mga yetdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,7 % ni tashkil etdi.

3 048,5  
ming so'm

Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi

101,7 %

O'sish sur'ati

307,2  
ming so'mga

Hajmning o'sishi

2019- yilning yanvar- iyul oylariga nisbatan

## 2020- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni - 12 604 birlikda


Ularning umumiy sonidagi ulushi - 64,9 %

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari - 134,5 %



## 2020- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, faoliyat

## ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




2020- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi - 64,9 %, sanoat - 16,2 %, qurilish - 7,9 % ga yetdi va atigi 11,0 % i qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasi hissasiga to'g'ri keldi.

## 2020- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar yuqori ulushni (50,0 %) egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 10,1 % ni tashkil etdi.



- SAVDO
- BOSHQA TURDAGI
- YASHASH VA OVQATLANISH BO'YICHA XIZMATLAR
- TASHISH VA SAQLASH
- AXBOROT VA ALOQA
- SOG'LIQNI SAQLASH


Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 4,8% ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibidagi ulushi 1,4 % ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,3 % ni tashkil etdi.

## 2020- yilning 1- avgust holatiga ko'ra xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar sonining ko'payishi va o'sishi, % da

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



O'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 3 236 taga ko'paydi.

**Taqqoslash uchun:** 2019- yil 1- avgust holatiga ko'ra ularning soni 2678 taga ko'paygan.


Kuzatilayotgan davrning o'tgan yilga nisbatan savdo faoliyati sohasidagi yuqori o'sishi – 71,5 % ekanligi aniqlandi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2 626 taga ko'paydi va 6 300 taga yetdi.



Shuningdek, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq faoliyatda ham o'sish kuzatildi - 13,7 %. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 154 taga ko'paydi va 1 275 tani tashkil etdi.

**Ma'lumot uchun:** 2019- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida 9 368 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida savdo xizmatlari – 39,2 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 12,0 %, tashish va saqlash - 5,8 %, axborot va aloqa - 1,9 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 2,6 % hamda boshqa turdagi xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar – 38,5 % ni tashkil etgan.

**2020- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




2020- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissi 60,9 % ga to'g'ri keladi.

**Taqqoslash uchun:** 2019- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, ularning ulushi 58,5 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining o'sishi, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

**2020- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



2020- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, o'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 3 213 taga ko'paydi.

Natijada, ularning soni 10 505 tani tashkil etdi va o'sishi esa 44,1 % ga oshdi. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining umumiy sonida xizmatlar sohasida band bo'lganlarning ulushi 60,9 % ga yetdi.

**Taqqoslash uchun:** o'tgan yilning shu davrida xizmatlar sohasida band bo'lgan kichik korxonalar va tashkilotlar sonining ulushi 58,5 % ekvivalentida qayd etildi.



➤ Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli faoliyatlarni o'z ichiga oladi.

➤ Xizmatlar sohasida iqtisodiy o'sishning asosiy omillari, aynan, yangi ilmiy bilimlar, aqliy kapital, axborot texnologiyalari, moliya sektori xizmatlari, konsalting va boshqalar shakllanishi bilan izohlanadi.

Viloyatda xizmatlar sohasining rivojlanishi aholining o'sib borayotgan to'lov qobiliyati va imtiyozlariga, xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, ayniqsa zamonaviy xizmat turlariga bo'lgan iste'molchilar talabini qondira oladigan kichik biznesning rivojlanishiga bog'liqdir.

Boshqacha qilib aytganda, bir tomondan, xizmatlarni ishlab chiqarish hajmiga uy xo'jaliklari daromadlari va imtiyozlar, xizmatlarga tariflar, boshqa tomondan - investitsiyalar, soliq, pul-kredit va davlat siyosati, ilmiy-texnik siyosat, shuningdek, kichik biznesning rivojlanishi kabi omillar ta'sir qiladi.

**Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi**

**Tel.: 79-223-63-31; 222-04-37**